

AFG'ONISTONNING ETNIK QIYOFASI VA AFG'ON O'ZBEKLARINING HUDUD BO'YLAB JOYLASHUV XUSUSIYATLARI

Xo'jamuruodov Nodirbek Sultonmurodovich
Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi
Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: *Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi Afg'onistonning shimoli o'zbek etnosining millat sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu maqoada Afg'onistonning etnik qiyofasi va afg'on o'zbeklarining hudud bo'ylab joylashuv xususiyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'z: polietnik, etnos, turktaborlar, badraxli, parcha, junus, bo'dene, buyra, mirzagul, tuyechi, katte mergen, kurdek, kizilbay, yomut, xatab, karaja, surxi, akdari, chalish, qarin, g'abirdi, chakish, chatrak.

Afg'oniston polietnik davlat sifatida yigirmadan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. Yirik etnoslardan pushtunlar, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, hazoralar, choraymoqlar, nuristonliklar, balujlar, pashshayilar, arablar, hindular va hokazo. Pushtunlarning yirik etnik birliklari Durroniy vagilzayilardir. Afg'onistonda turkiy tilli xalqlarni turknajot yoki turktaborlar ham deyishadilar.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi Afg'onistonning shimoli o'zbek etnosining millat sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shu bois, bugungi o'zbek millati tarkibidagi barcha elat va urug' vakillarini ushbu hududda uchratish mumkin. Qatag'on mintaqasida o'zbeklarning qatag'on, laqay, qo'ng'iroq, qarluq, do'rman elatlari aksariyat miqdorni tashkil etadi. Andarob va Xinjon aholisining muayyan qismi o'zlarining asli kelib chiqishini turkiylardan deb hisoblasalarda porsibondirlar⁴¹.

O'zbek etnosi tarkibidagi etnik birliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, masalaning muhim jihatni har bir elat yoki urug' vakili umumiy millatga xoslik xususiyati bilan bir qatorda etnik o'ziga xoslik jihatlarini ham saqlab kelmoqdalarki, bugungi kunda ushbu jarayonning ijobjiy rivojini o'rganib, xususiylikning umumiylig sari o'sib o'tish qonuniyati asosida tadqiq etish milliy fanimiz rivojini ta'minlovchi omil sifatida muhimdir. Shu bois, mamlakat shimolida yashovchi o'zbek millati tarkibidagi ayrim yirik elat va urug'lar haqida to'xtalamiz.

Laqaylar Bag'lon viloyati, Qunduz viloyatining aksariyat hududlarida, Helman viloyati markazi Lashkargoh atrofida, Tahor viloyatining Ishkamish, Imom Sohib Rustok va ulusvolliklarida istiqomat qilishadilar.

Qunduz viloyati, Olchin Damshoh qishlog'ida:

- 1) «Eshon qishloq» mahallasida 70 xo'jalik: kurdek, badraxlining ayrim urug'lari jumladan kichchi mergen.
 - 2) «Tuyechi» mahallasida - 80 xo'jalik: tuyechi, akbash.
 - 3) «Zargar» mahallasida 40 xo'jalik: malish, mirzag'ul, - badraxli.
- Qunduz viloyatining Qalacha qoriyasida:

⁴¹ Жумладан: Порсибонлар аҳолининг форсий-дарий тилида сўзлашувчи катлами. Порсибонлар ҳам шимолий Ағонистон аҳолисининг аксарият қисмини ташкил этади.

Asosan, Esanxo'ja urug'ining aksari, badraxlining katte mergen urug'lari yashab, o'rta hisobda 50 xo'jalik. Qunduz viloyati Aliobod ulusvolisida asosan o'zbeklar, o'zbeklarning laqay elati vakillari istiqomat qiladi. Jumladan:

Budene qishlog'ida 180 xo'jalik, boshliqlari Sherali-laqay;
Kuchak qishlog'ida 120 xo'jalik boshliqlari Arbob Saxidod;
Duvana qishlog'ida 100 xo'jalik boshliqlari Hoji - Gulmurod;
Qozoq ko'cha qishlog'ida 100 xo'jalik, boshliqlari Abdurahmon laqay.

Yuqorida ta'kidlangan qishloqlarda hisorlik va ko'loblik laqaylarning badraxli, parcha, junus, bo'dene, buyra, kichili urug'lari istiqomat qiladi.

Bundan tashqari ulusvoli hududida o'zbekning saqav (1000 xo'jalik) va qaracha (600 xo'jalik) urug'lari ham istiqomat qiladilar.

Tahor viloyatining Xo'ja ulusvolisi Bahovaddin qoriyasi Darvozakamdag'i Laqaylar qishlog'ida 200 xo'jalik ko'loblik laqaylar, *Tahor* viloyati Xo'ja Bahovaddin ulusnolisi Darkad qariyasidagi Chuqur qishloqda 50 xo'jalik laqaylar istiqomat qilishadi.

Bag'lon viloyati Bolodurii Hojibobonazar qishlog'ida umumiy 500 xo'jalik istiqomat qilishib, yarmisi ko'loblik tojiklar, qolgan yarmisi esa ko'loblik laqaylar bo'lib, laqaylarning shakey, davet, azav va uchuvul shoxchalaridir. Bolodurii maktab qishlog'ida 150 xo'jalik istiqomat qilishib, asosan Hisor laqaylari kurdeklar; ko'lob laqaylarining davet shoxchalari istiqomat qilishadi.

Bag'lon viloyati, Puli Xumridagi Raisqishloqda 100 xo'jalik: Hammasi laqay mirzagul, tuyechi, katte mergen, kurdek, kizilbay; ko'lobi laqayning to'rtuul, chal to'rtuul, aygulgan. Oqsoqollari Hoji Nazir, o'g'li Abdulbanr (har ikkalasi ham shahid bo'lgan).

Helman viloyatining Lashkargoh shahri atrofida laqayning buyra urug'i aksariyat bo'lib istiqomat qilishadi.

Tozlar - «j»lovchi bo'lib, Samangon va Bag'lon viloyatlarida, jumladan Samangonning Erog'li qishlog'ida 1500 xonodon istiqomat qiladilar.

Afg'onistonda tozlarning muayyan qismi o'zlarini alohida etnik birlik sifatida atasalarda, aksariyat hollarda Qatag'onlarning bir urug'i sifatida e'tirof etadilar. Imom Soxibdag'i tozlar o'zlarini toz-laqaylar sifatida tanishtiradilar. Ushbu jihat bir tomondan tozlarning ilgaridan laqaylar bilan birga yashab kelayotganliklarini bildirsa, ikkinchi tomondan laqay fenomeni Afg'onistonda etnonimdan sifatlovchi darajasiga ko'tarilganligini bildiradi. Ya'ni, muayyan shaxs yoki guruhning sifatini bildirish uchun ham qo'llaniladi.

Qatag'onlar «j»lovchi elat bo'lib, Samangon, Bag'lon, Qunduz, Taxor, Badaxshon va Afg'oniston viloyatlarida istiqomat qilishib, «j»lovchi o'zbeklarning aksariyati qatag'onlardir. Qatag'onlar bugungi Samangon, Bag'lon, Qunduz, *Tahor* va Badaxshon viloyatlarida yashovchi turkiy xalqlarni birlashtirib, ushbu hududlarda Qatag'onlarning mustaqil bekligini tashkil etganligi tarixdan ma'lum. Shu bois, yuqorida ta'kidlangan hududlar Qatag'on mintaqasi deb atalishi bejiz emas. Ushbu hududda ayrim yoqilgi quyish shohobchalariga ingliz tilida "Qataghan - Oil" yozuvlari, Qatag'on etnik atamasining geohududiy atamaga aylanganligidan dalolatdir. Burkening baytop shoxchasi Batlon viloyati, Burke ulusvolisi, Baytop qoriyasida yashaydi.

Ko'ngirotlar «j»lovchi elat bo'lib, Balx, Bag'lon, Qunduz, *Tahor*, Shibirg'on, Maymana va Helman viloyatlarida istiqomat qilishadi. Ayrim oilalar Turkiya, Saudiya va Pokistonga

ko‘chib ketishgan. Afg‘onistonda Qo‘ng‘irotlarning ko‘rtog‘ay, qo‘ldovli, maltaka, jelkillak, doska, gala, topqara, qarabura shoxlari yashab, asosan Balx viloyatidalar.

Qarluqlar «e»lovchi elat bo‘lib, Mazori Sharif, Samangon, Qunduz, Taxor viloyatlari qoriyalarida, shuningdek Rustokda yashaydilar. Taxor viloyatining Toliqon shahrida, Xonobodda, Qunduz viloyatining Dashti Archi, Chordara, Imom Sohib, Aliobod ulusvolilarida qarluqlar istiqomat qilishadi. Ayniqsa, Aliobodning Asqalon qoriyasida, Tolikon atrofidagi qoriyalarda, Samangonning Tanachub qoriyasida qarluqlar zinch yashaydilar. Ayrim hududlarda qarluqlar dariy tilida so‘zlashib forsizabon bo‘lib ketishgan. Hatto, ayrimlari hazoralarning tarkibiga kirib, o‘zlarini «hazora Qarluq» deb atashadi.

Juzlar «j»lovchi bo‘lib, Mazori Sharif atrofi, Saripul, Bag‘lon va Qunduz viloyatlarida istiqomat qilishadi. O‘zbek millatining juz (yuz) urug‘i Qunduz shahrida, shuningdek, Qunduz atrofidagi Tilevke, Asqalan qishloqlarida; Chordara ulusvolisidagi Bog‘ikum, Baskin: Dashti Achchi ulusvolisidagi Vaqil Qayum qishlog‘ida; Imom Sohib ulusvolisidagi Basiz qishlog‘ida istiqomat qilishadi. Juzlarning oqsoqoli Hofiz qo‘mondon⁴². Juzlarning kesevli va qoratamg‘ali shoxchalari aksariyatni tashkil etadi. Afg‘onistonlik juzlarning bir qismi Pokistonda, jumladan Peshovar, Kuvayta shaharlarida hamda Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlarida istiqomat qiladilar.

Do‘rmanlar «j»lovchi bo‘lib, Shibirg‘on, Bag‘lon, Qunduz, Tahor, Helmand, Samangon viloyatlarida istiqomat qilishadi. Jumladan, Aybak yaqinidagi Shekiyarda, Qunduz atrofida Tepai Burida, Gurtepa, Jangali, Arbob Sharif va Arbob Rahmatilla qishloqlarida yashaydilar. Bag‘lon viloyatining ayrim hududlarida, Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlarida istiqomat qiladilar.

Markalar «j»lovchi bo‘lib, Qunduz viloyatining Olchin Damshox qishloq‘ida, shuningdek Pokistonning Quvayta shahrida istiqomat qilishadi.

Kipchoqlar «j»lovchi bo‘lib, Mazori Sharif, Shibirg‘on, Andxo‘y, Samangon, Qunduz, Tahor va Badaxshon viloyatlarida istiqomat qilishadi.

Uymavutlar «j»lovchi bo‘lib, Mozori Sharif, Bag‘lon va Qunduz viloyatlarida istiqomat qilishadi. Mazori Sharif atrofida Uymavut nomli qishloq bo‘lib, unda 1 000 xo‘jalik, - Buyni Qurada 500 xo‘jalik, Toshqo‘rg‘onda 600 xo‘jalik – atrofida istiqomat qiladilar. Uymavutlar ko‘kavur, bo‘zarin, ko‘ktirnoq urug‘lariga bo‘linadilar.

Korgarlar Xorazmcha lajhada so‘zlashishib, bosimi Andxo‘yda istiqomat 5 000 xo‘jalikni tashkil qilishib, O‘zlarining etnogenezini Xorazm bilan bog‘laydilar.

Urganjilar. Xorazmcha lajhada so‘zlashib, asli kelib chiqishlari Xorazm viloyati ekanligi bois, ushbu etnonimni qabul qilganlar. Asosan, shimoliy Afg‘onistonning Turkiston mintaqasida istiqomat qilishadi. Ushbu etnik birlik tarkibiga oktyabr inqilobidan ilgari o‘tgan xorazmliklar bilan birgalikda, «bosmachilik», quloqlashtirish va qatag‘on yillarida ketgan xorazmliklar ham ushbu etnonim tarkibida o‘zini tanitadi. Suhbatdoshlarimizning ta’kidlashlaricha XX asrning 30 yillari Xorazmda bir o‘qimishli mullaning xonadoni tintuv qilinib, oila a’zolariga nisbatan jazo va qatag‘on usullari ko‘llana boshlangach, qari ota endi uylangan o‘g‘lini kelini bilan qochirishga muvaffaq bo‘ladi. Ular Afg‘oniston shimoliga borib millatdoshlari orasiga joylashib, yoshlarning savodini chiqarish bilan shug‘ullanishadi. Bola

chaqali bo'lishgach ham oila davrasida kechki ovqatdan so'ng dasturxon yig'ilgach, vaqt-vaqt bilan eru-xotin bir biriga raqsga tushishni taklif etishib, musiqasiz sho'x raqsga tushishar, terlab charchagunlaricha o'ynab, oxiri o'tirib olib, xo'ng-xo'ng yig'lashar ekan. Farzandlari tushunolmasdan hayron bo'lar, ulg'aygandan keyin bilsalar, ota-onasi «Lazgi»ga raqsga tutishib, shu raqsda Vatanga, elga muhabbat, sog'inch, o'rtanish mujassam ekanligi, faqat shu usul orqali o'zlarini darddan forig' qilishga intilishar ekan. Demak, Vatan va elga xos bo'lgan har qanday madaniyatning qirrasida ham buyuk bir olam mujassam. Hayotning achchigini tatib ko'rgan shaxsgina bu olamni teranroq idrok etadi. Xalqimizdagi «Musofir bo'lmanus surmon bo'lmaydi», degan maqol bekorga emas.

Karshiliklar Andxo'yda 6000 xo'jalikni tashkil etadi. Shuningdek, Faryobda ham istiqomat qilishadi.

Kechigilar Andxo'yda 300 xo'jalik.

Kiyikchilar «j»lovchi bo'lib, Mozori Sharif, Andxo'y atroflari hamda SHibirg'onning Axchi qishlog'ida istiqomat qilishadi. Shuningdek, Balx viloyatida istiqomat qilishib, Davlatobod ulusvolisining Qarshan qishlog'ida 5.000 xo'jalik, Dehnov qishlog'ida 3000 xo'jalik, Talyak qishlog'ida - 4000 xo'jalik, Jo'rap qishlog'ida 2 500 xo'jalik, Kultak - 7.000 xo'jalik; Joybozor ulusvolisining qishlog'ida Joybozor qishlog'ida - 8 000 xo'jalik istiqomat qilishadi.

O'zbek turklari Maymana viloyatining Bilchirok ulusvolisining 70 foizini tashkil etishadi. Gurzivon ulusvolisi Qal'ai Xo'ja, Bahorak qoriyalarida, shuningdek Juzjon viloyatining markazi Shibirg'on shahrida, Mazori Sharifda, Tolixon viloyatining Kalafkon ulusvolisida o'zbek turklari istiqomat qilishadi.

Chig'atoylar «e»lovchi bo'lib, Mozori Sharif, Saripul, Shibirg'on, Maymana, Samangon, Bag'lon va Qunduz viloyatlarida Chig'atoylar istiqomat qilishadi. CHig'atoylar asosan Tahor viloyati Tolikon shahri aholisining 60% ini tashkil etadi. Badaxshon o'zbeklarining 10% ini chig'atoylar tashkil etadi. Shuningdek, ular Samangonning Aybagida, Mazori Sharifning Davlatobodida istiqomat qilishadi.

Mo'g'ullar «j»lovchi bo'lib, Bag'lon, Qunduz, Tahor, Saripul, Badaxshon viloyatlarida istiqomat qilishadi. Tolixon shahar aholisining 10 % ini mo'g'ullar tashkil etadi. Shuningdek, Rustokda ham ular zikh yashaydilar⁴³.

Qutchilar «j»lovchi bo'lib, Afg'oniston shimalida jami bir necha ming oilani tashkil etadi. Asosan, Qunduz viloyatida: Katta qutchi (150 oila), Bo'lak qutchi (80 oila), Chuqur qishloq (120 oila), Oltigumbaz (40 oila), Chaqishli (80 oila), Kubayi (300 oila) qishloqlarida zikh istiqomat qilishadi.

Beklar Maymana viloyati Andxo'y mintaqasi Almor ulusvolisining Qaroyi qoriyasida; Faryob viloyatining Kaysor ulusvolisi Berka qoriyasida; Faryob viloyati Shirin Tagob ulusvolisining Saroyqa'la, G'izori, Bodg'is va Fayzobod qoriyalarida istiqomat qilishadi. Beklarning etnik klassifikatsiyasi Beklar deb atalib, qolgan mayda shoxchalar - muayyan avlodga asos solgan bobolarining nomlari, masalan Nazarbek avlodi, Qilichbek avlodi kabi guruahlarga bo'linadi.

⁴³ Сари Пул вилоятида истиқомат қилувчи муғуллар форсибон бўлиб кетишганлар.

Xidir eli. O'zbek millati tarkibidagi bu urug‘ asosan Shibirg‘on viloyatining Xujadukki ulusvolisida (300 xo'jalik), Misrobod qariyasida (50 xo'jalik), hamda Juzjon viloyati Murdiyon ulusvolisi Alamlık qoriyasida (600 xo'jalik), Mingajik ulusvolisi Abbas qoriyasida (50 xo'jalik), Naxnavi Bolo qariyasida (50 xo'jalik), Nahnavi Poyon qoriyasida (50 xo'jalik), Murdiyon ulusvolisi markazida (200 xo'jalik), Boboali qariyasida (60 xo'jalik) istiqomat qilishadi.

Surxobilar Faryob va Bodg‘is viloyatida, viloyat markazidan 5 km.masofada istiqomat qilishib, o'zlarini o'zbek deb hisoblaydilar hamda o'zbek tilida so'zlashishadilar. Surxobilarning umumiy miqdori o'n ming xo'jalikdir. O'zbeklarning boshqa urug‘lari bilan kiz olib, qiz beradilar. Urf-odat va an'analar ham mushtarakdir.

Bayotlar Shibirg‘on shahri atrofida bayot urug‘i istiqomat qilishadi.

Balujlar Saripul shahrida, Andxo'y va Maymanada ham Balujxona nomli taxminan har bir hududda yuzlab oilalardan iborat mahallalar ham mavjudki, ular antropologik jihatdan balujlik ko'rinishlarini saqlab qolgan bo'lsada, lekin etnotarixiy jarayonlar ta'sirida baluj tilini unutishib, o'zbek tilida so'zlashishadi. Ularning ajdodlari bundan to'rt yuz yil ilgari Abdullaxon davrida kelib, keyinchalik tillari o'zbekchalashib, oilada ham bir birlari bilan o'zbek tilida muomala qilishadi. O'zbeklashgan balujlar mahalliy o'zbeklar bilan qiz berib, qiz olishib, chatishib ketishganlar. Balujlar Eronning janubida, Pokistonning shimolida, Iroqda, Afg'oniston janubidagi Nimruz viloyatida ham bo'lib, ular baluj tilida so'zlashishadi.

Elxoniylar Saripul va Shibirg‘onda yashab, til, urf-odat va an'analarining ayrim jihatlari aymoqlarga o'xshab ketadi. Shu bois, ularning etnik shakllanishida turk-mo'g'ul elementlari faol rol o'ynagan. Ular ko'cha va jamoat joylarida o'zbek tilida muomala qilishsada, oilada ikki tillilik o'zbek va dariy tillilik holatlari keng yoyilgan. Keyingi ellik yil davomida elxoniylar va o'zbeklar orasida qiz olib, qiz berish rivojlanib bormoqda. Elxoniylarni ayrim holatlarda ulkoniylar deb atash ham kuzatiladi.

Fargonachilar. Qunduz shahrida, shahar atrofidagi Olchin Damshox qishlog‘ida istiqomat qilishib, ayni paytda barchasi Turkiya va Saudiya Arabistoniga ko'chib ketishgan.

Qozoqlar Qozoqlar Dashti Archi va Imom Sohibda istiqomat qiladilar.

Tatarlar. Tahor va Qunduz viloyatlarida yashovchi tatarlarning bir qismi o'zlarini o'zbek etnosiga mansub deb hisoblab o'zbek tilida so'zlashishadi. O'zbek tatarlari «e»lovchi bo'lib, ular asosan Maymana viloyatida yashaydilar. Yarmi esa o'zlarini tatar sifatida e'tirof etsada dariy tilida so'zlashishadi. Samangon viloyati, Rui duob ulusvolisi, Saritangi qishloq‘ida yashovchi 45 yoshli Mavlaviy Xayrmuhammad Totoriyning ta'kidlashicha Afg'onistonda totorlar 200 mingdan ko'proq bo'lib, Samangon viloyati Rui duob ulusvolisida 20 ming oila, ya'ni 100 ming kishidan iborat ekanlar. Rui duob ulusvolisining Bolokent, Poyonkent, Surxkala, Mudirak, Pontangi, Duob, Obxo'rak, Xojazohid, Qashqa, Aymoq, Muxu, Hazorsum, Kalgunba, Navruzho, Begishho, Xolakho, Keturho, Chorcharhma, Javpololi bolo, Javpololi poyon qoriyalarda, shuningdek, Faryob viloyatining Maymana shahrida, Tatarxonada, Tahor, Badaxshon, G'azni, Bag'lon, Bomiyon va Parvon viloyatlarida ham istiqomat qilishib, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yarmi o'zbek tilida so'zlab, yarmi forsibondirlar.

Mirzoyilar o'zlarining etnik kelib chiqishini Shohruh mirzo bilan bog'lab, o'zlarini uning avlodи sifatida e'tirof etadilar. Ta'kidlashlaricha, ularning o'n sakkizinchи asrda kiyik terisiga bitilgan qavmiy shajarasi ayni paytda ham mavjud bo'lib, 12,4 metrni tashkil etadi.

Aymoqlar ham yashash hududlariga qarab muayyan qismi Uzlarini o'zbek deb hisoblab, o'zbek tilida so'zlashsalarda, ularning muayyan qismi o'zlarini porsibon hisoblab, dariy tilida so'zlashadilar. Masalan, Maymana viloyatida ular asosan o'zbek tilida so'zlashsalar, Qunduz viloyatida va Mozori Sharif shahrida aymoqlarning bir qismi o'zbek, qolgan qismi esa dariy tilida so'zlashishadi. Hirot viloyatida esa aymoqlar tamoman dariy tilida so'zlashadilar.

Hazoralarning asosiy qismi dariy tilida so'zlashishlariga qaramasdan, o'zlarining etnogenezini turk-mo'g'ullar, ya'ni Chingizxon bilan bog'laydilar. Ulardagi ayrim atamalar va ularning turkiy antropologik tuzilishlari ham hazoralarning turk-mo'g'ul etnoslardan ekanligini tasdiqlaydi. Chunonchi, hazoralar vakillarining o'nboshi, yuzboshi, mingboshi kabi atamalarning mavjudligi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Hazoralar o'zlarini yagona etnonimga mansubliklarini e'tirof etsalarda, istiqomat joylariga qarab, hazora mo'g'ul, hazora turk va hazora Qarluq kabi etnik guruhlarga bo'linadi. Ana - shu xususiyatlar ularning qaysi tilga gaplashishlarini bildiradi. Masalar, ular Taxor viloyatida yarmidan ko'pi o'zbek, qolgani dariy, Samangon va Qunduz viloyatlarida yarmidan ko'pi dariy, qolgani o'zbek tillarida so'zlashishadi. Ayrim respondentlar Hazoralar va aymoqlar o'zaro ekanliklarini, ilgari ular bir etnik qatlama bo'lganliklarini, yaqin bugungi kunda hazoralar o'n ikki shoxga bo'linishlarini aytishdilar.

Turkmanlar Saljukiy, Temuriy va Jamshedli turkmanlariga bo'linadi. Hirotda ham turkmanlar istiqomat qilishib, dastlab 20000 oila bo'lishgan. Keyin, Shimoldan muhojir sifatida 3750 oila kuchirilgan. Afg'oniston turkmanlarining ko'pchilik qismini Saljuqiy va Temuriy turkmanlari tashkil etishib, ular 100 000 oiladan ko'proqdirlar. Turkmanlarda 200 - 300 askarni «o'ymoq» deyishadi. Qunduz viloyati Qal'ai Zol ulusvolisida istiqomat qiluvchi Oysha Bekning guvohlik berishicha Afg'onistonda turkmanlar 3 mln.dan ortiqni tashkil etib, asosan Shibirg'on, Faryob, Balx, Samangon, Qunduz, Bodgis, Hirot, Faryob viloyatlari, shuningdek Amudaryo qirg'og'i bo'ylab, turkmanlar zich holda istiqomat qilishadilar. Turkmanlar asosan: yomut, xatab, karaja, surxi, akdari, chalish, qarin, g'abirdi, chakish, chatrak urug'lariiga bo'linadilar.

Faryob viloyatidagi Andxo'yning yarmi turkmanlar bo'lib, Turkmanlarning ersari, ulugbek, saljuqiy ulu tepa va urug'lari yetakchilik qiladi; Maymana viloyatining Davlatobod ulusvolisi Kuraysh To'pxona, Taxta va Chorchangi qishloqlarida; Shibirg'on viloyati Akcha, Qarqin va Sho'rtepa ulusvolilari, Balx viloyatining Kaldor ulusvolisi, Faryob viloyatining Qaysor ulusvolisi, shuningdek Hirotning aksariyati turkmanlardir.

Andxo'y, Aqcha va Balx viloyatida istiqomat qiluvchi turkmanlarning 90 foizi ersari urug'idandir. Qolgan 10 foizi taka va yovmut urug'iga mansubdirlar. Ersari urug'i Davlatobod, Faryobdan to Qunduzgacha bo'lgan hudud bo'ylab yoyilgan bo'lib, asosan Amudaryo labida, shuningdek shaharlarda istiqomat qilishadi. Taka urug'i Hirot viloyatida, yovmut urug'i Bodxisning Marvichoq qoriyasida yashaydilar.

Jo'gilar yoki lo'lilar Afg'onistonda yigirma-o'ttiz ming kishini tashkil etishib, tilanchilik qilishadi. Jo'gilar issiq mavsumlarda suv bo'ylarida palatka kurishib, kishda aholining ta'kidlashlaricha ba'zi uylarni ijara olib turishar ekanlar. Ularning aksariyati o'zlarini musulmon deb hisoblashar ekanlar. Adir hududlardagi jo'gilar jayraning go'shtini yeyishib, jayrani tutishda o'ziga xos usullarni qo'llashar ekanlar. Ma'lumki, jayralar o'simliklar tomiri bilan oziqlanib, pishiqchilik mavsumida qovun-tarvuz yeydilar. Yirik jayralar bir qo'ynikiday,

ya’ni yigirma kilogramm atrofida go’sht qilishadi. Odamni ko’rsa sixini, ya’ni nayzalarini otib, o‘zini himoya qiladi. Jayralar g‘orlarda in qiladi. Jo‘gilar jayraning iniga maxsus o’rgatilgan kuchuklarni soladi. Inda jayra bo’lsa, kuchuk qaytib chiqib inga qarab vovullayveradi. Jo‘gilar inni qazib, jayrani tutib olishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари // O`zbekiston tarixi, 2002. 4-сон.

Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи. – Т., 2007. –

Бўриев О. Қатағон этноси ҳақида баъзи мулоҳазалар // Мустақил Ўзбекистон ва милатларо муносабатлардаги барқарорлик. – Т.: ТошДУ, 1995. – Б. 10-12.

Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Фан, 1968. – 96 б.

Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 320 б.